

## MODAL SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich,**  
*University of Business and Science oliy ta‘lim muassasi,  
Til va adabiyot ta‘limi kafedrası dotsent v.b.  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488736>

**Annotatsiya:** Ushbu annotatsiyada til vositalarining qo‘llanishida ana shunday keng rejada bo‘lishi bilan birga, badiiy nutq uslubi doirasida ularni qo‘llashning ma‘lum qoida-qonunlari ham amal qilinadiki, qoida-qonunlar uni boshqa uslublardan chegaralashga, farqlashga, imkon beradi. Bu, eng avvalo, badiiy nutq uslubining fonetik lug‘aviy va grammatik xususiyatlari nazarga olingan.

**Kalit so‘zlar:** *Uslub, nutq uslublari, lison, til va ong, eskirgan so‘zlar, Taqlid, modal, undovso‘zlar, dialekt, jargon, varvarizm.*

Gap ma‘lum bir fikrni anglatish bilan birga, bu fikrga so‘zlovchining munosabatini ham aks ettiradi. So‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini ifodalovchi ma‘noga *m o d a l m a ‘ n o* deyiladi (latincha *modus* — «o‘lchov», «usul»). Bunda anglatilayotgan fikrning aniqligi, chinligi, shartliliği kabilar obyektiv voqelikka qiyosan baholanadi. SHularga ko‘ra, modallik so‘zlovchining voqelikka subyektiv-obyektiv munosabatini ifodalaydi.

Modal ma‘nolar morfologik, sintaktik va leksik usullar bilan ifodalanadi. Bu usullar o‘zaro zich bog‘langan.

Modallikning morfologik ifodalanishi deyilganda odatda mayl kategoriyasi, shuningdek, zamon kategoriyasining ichki tarmoqlanishi nazarda tutiladi.

Gap ma‘lum intonatsion tugallikka ega. Gapning kuzatilgan maksadga ko‘ra turlarida intonatsiya har xil bo‘ladi. Modallikning sintakik ifodalanishiga taalluqli bo‘lgan va o‘zaro chambarchas bog‘langan bu ikki hodisa — gapning kuzatilgan maqsadga ko‘ra turlari va intonatsiya — grammatikaning sintaksis qismida o‘rganiladi.

Modal ma‘noning leksik usulda ifodalanishi ikki xil:

1. Maxsus so‘z bilan ifodalanadi. Bular modal so‘z deb ataladi.
2. Biror turkumga (masalan, otga, sifatga) mansub so‘z orqali ifodalanadi. Bular odatda yo modal ma‘noli so‘z bo‘ladi, yoki kontekstga ko‘ra modal ma‘no ifodalab keladi.

So‘zlovchining o‘zi anglatayotgan fikrning aniqligiga, chinligiga ishonch darajasini ifodalash uchun xoslangan so‘z modal so‘z deyiladi.

Modal so‘z fikrning chinligi, aniqligi, qat‘iyligi yoki gumonli, chamali ekanligi kabi ma‘nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi, shakl jihatdan o‘zgarmasligi bilan xarakterlanadi.

Modal so‘z gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi, gap bo‘laklari bilan sintaktik jihatdan bog‘lanmaydi ham; odatda butun gapga taalluqli bo‘lib, kirish bo‘lak vazifasida keladi.

Modal so‘zlar ifodalagan ma‘nolariga ko‘ra dastlab quyidagicha guruhlanadi:

- 1) fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal;
- 2) fikrning noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal;

Fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so‘zlar yordamida:

a) fikrning rostligi, realligi tasdiqlanadi: dirhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filqaqiqat (arxaizm), nafsambiriga (ho-, zir iste‘moldan chiqib bormoqda), muhaqqaq, voqean (keyingi ikki so‘z eski lug‘aviy birlikka aylangan) kabi: Darhaqiqat, bu majaroning boshqa oqibatlari hozir uning ko‘ziga o‘z-o‘zidan barham topgan va topayotganday ko‘rinar edi (A. Qahhor);

b) fikrning qat‘iyiligi ta‘kidlanadi: shubhasiz, so‘zsiz, sha/s-.\_ siz kabi. Bu, shubhasiz, bizning yutug‘imiz (A. Qahhor);

v) anglatilayotgan voqelikniyag yuz berishiga ishonch bildirila-di: albatta (she‘riyatda ba‘zan albat shaklida ham uchraydi) kabi: ...Lekin jigar ...Esga tushsa, achinaman, al b at t a (U yg‘un);

3) g) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanini ifodalaydi: o‘z-o‘zidan, tabiiy kabi: Tabiiy, Yefim Yefimovich ham bu yangi do‘stlaridan osonlikcha ko‘ngil uzolmas edi (H. Nazir); fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal;

d) fikrning chinligi, realligi eslatiladi: rostdan ham, darvoqe, aslida (asli, aslan; keyingi shakli arxaizmga aylangan) kabi: Darvoqe, bu gap raisning uyida ham aytilgan edi. (S. Nazar).

Fikrning noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so‘zlar yordamida:

a) fikrning taxminiy ekani bildiriladi: shekilli (so‘zla-shuv nutqida shekil shakli ham uchraydi), chog‘i, chamasi kabi: Ha, yana bir ta‘ziringni beradigan bo‘ldim, ch am a si! (U y g‘u n);

b) fikrning gumonli ekani bildiriladi: ehtimol, balki kabi. B a l k i u yerlarda ko‘p dilbar Manzaralar jilva qilgandir... (U y g‘ u n);

v) fikrning tasmolli ekani bildiriladi: xoyna-xoy, aftidan, mazmuni kabi. Sharofat, aftidan, bunaqa gaplar bilan Siddiqjonning g‘ashiga tegmotschi, shu yerda biron mojaro boshlab, dod solmoqchi edi (A. Qahhor);

g) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiriladi: har qalay, har holda kabi. Jahonning kattaligi aniq o‘lchangancha yo‘q, har holda, bir soldatning qalbidan kichik bo‘lur (G. G‘ulom).

Modal so‘z gap bo‘laklari bilan sintaktik jihatdan bog‘lanmagan bo‘ladi, kirish bo‘lak vazifasida keladi. Fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal

so‘zlar odatda nutq oqimida pauza bilan ajralib turadi, shunga mos ravishda bunday modal so‘zlar yozuvda ham vergul bilan ajratiladi: Zokir ota to‘g‘ri aytadilar. Haqiqatan, bizni maktabdagina emas, choyxonada, ko‘chada, dalada— hamma yerda o‘qitishda ilmi yetadigan muallim kerak (A. Qahhor). Mana borib ko‘rarsan. Hoyna-hoy, menikiga tushmasdan ketmassan?! (Uyg‘un) Bildimki, afsona, qo‘shiq va o‘yin jon topgan u shahlo ko‘zlardan, shaksiz (Shayxzoda). Har bir gapda ma‘lum bir fikr ifodalanadi, shu bilan birga bu fikrning voqelikka bo‘lgan munosabati ma‘nosi ham anglashiladi. Masalan, so‘zlovchi o‘z fikrining ishonchli yoki shubhasini turlicha usullar bilan ifodalaydi. So‘zlovchining borliqqa ishonch, gumon, istak kabi munosabatlarini anglatuvchi so‘zlar modal so‘zlardir. Modal so‘zlar fikrning chinligi, aniqligini, qat‘iyligini darhaqiqat, haqiqatan, albatta, shubhasiz kabi so‘zlar yordamida, gumonli, chamali ekanligini ehtimol, shekilli so‘zlar yordamida anglatish uchun xizmat qiladi.

Modal so‘zlar forma jihatidan o‘zgarmasligi bilan xarakterlanadi. O‘z mohiyati bilan modal so‘zlar yuklamalarga yaqin turadi. Modal so‘zlar ham, yuklamalar ham o‘zlari ishtirok etgan gapga ma‘lum ma‘no tusini beradi. Modal so‘zlar ot, sifat, fe‘l kabi mustaqil so‘z turkumlariga o‘xshab ketadi. Shunga qaramay modal so‘zlar mustaqil so‘zlarga ham, yordamchi so‘zlarga ham kirmaydi, o‘z mohiyatiga ko‘ra alohida bir turkumni tashkil etadi. Nominativlik - nimanidir atash funksiyasi modal so‘zlarga xos emas. Modal so‘zlar gap bo‘lagi bo‘lib kelmaydi. Shu xususiyati bilan u mustaqil so‘z turkumlaridan farqlanib turadi.

Modal so‘zlar yordamchi so‘zlarga birmuncha o‘xshab ketadi. Lekin ma‘no va vazifalari jihatdan modal so‘zlar bilan yordamchi so‘zlar o‘rtasida kata farq bor: ko‘makchilar so‘zlarning o‘zaro munosabatini ko‘rsatish uchun, bog‘lovchilar so‘zlarni yoki gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiladi. Modal so‘zlar esa, bunday vazifalarni bajarmaydi: modal so‘zlar o‘zlarining leksik mustaqilligini va o‘z qiymatini saqlaydi. Modal so‘z odatda ana shu mustaqillik yoki o‘ziga xos qiymatini yo‘qotgandagina yordamchi so‘zga, asosan, yuklamaga aylanadi. Ko‘pchilik yuklamalar aslida shu yo‘l bilan modal so‘zlardan hosil bo‘lgandir. Modal so‘zlarning asosiy ma‘no turlari, vazifalari va xos qo‘llanish xususiyati mavjud. Modal so‘zlar anglatgan ma‘nolariga ko‘ra quyidagicha guruhlanadi:

a) Fikrning chinligi realligini anglatuvchi modal so‘zlar: albatta, shubhasiz, haqiqatan, darhaqiqat, rostdan, o‘z-o‘zidan, so‘zsiz kabi. Misollar: Ziyofat, albatta, to‘kin-sochin bo‘ladi. (O) Bu, shubhasiz, bizning yutug‘imiz. (A.Q). Haqiqatan, Saida Aytirishi ... mumkin. (A.Q). b) Fikrning gumonligini, chamalash, taxmin qilish, shubhalanish kabi ma‘no ottenkalarini ifodalovchi modal so‘zlar: ehtimol, shekilli, balki, aftidan, hoynahoy, chog‘i, chamasi kabi. Misollar tariqasida hech ikkilanmay misol keltira olishimiz mumkin. Masalan, Ehtimol, bu ishni bo‘yningga

olganingda, tantilik qildim deb zveno oldida kancha kerilgan bo‘lding.(A.K). Murodov eshitmadi shekilli, uning so‘ziga e’tibor bermay ketaverdi. Sharofat aftidan, bunaqa gaplar bilan Siddiqjonning g‘ashiga tegmokchi edi. Hoynahoy, menikiga tushmasdan ketmassan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Морен М., Тетерникова Н. Н. Стилистика современного французского языка.- М.: Изд-во литературы на иностранных языках. 1960.
2. Кожина М. Н. Стилистика русского языка- М.: Просвещение, 1977, с. 37-38.
3. Шомақсудов Д. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси.- Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 15-бет.
4. Мукаррамов.М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили.—Тошкент: Фан, 1984.
5. Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд: 2011.
6. Гуломов А., Тихонов А., Қўнгулов Р. Ўзбек тилнинг морфем луғати.- Тошкент: Ўқитувчи, 1977, 399-447-бетлар.
7. Головин Б.А. Язык и статистика- М., Просвещение, 1971, с, 63-91.
8. Қўнгулов Р., Каримов С. А., Қурборов Т. И. Узбек тилининг функционал стиллари. Ўқув қўлланмаси.- Самарқанд; СамДУ нашри, 1984, 54-59-бетлар.
9. Султон И. Адабиёт назарияси.- Тошкент. Ўқитувчи, 1980. 392-бет; Адабиёт назарияси, III том,-Тошкент: Фан, 1977. 184-304- бетлар: Ш у к у р о в Н. ва бошқ. Адабиётшуносликка кўриш.- Тошкент: Ўқитувчи, 1984
10. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.